



“QADIMGI DAVLATLARDA MUSIQANING RIVOJI”

Yuldasheva Aziza

O'zbekiston davlat konservatoriysi "Musiqo san'ati" fakulteti

"Musiqashunoslik" yo'naliishi 1 kurs talabasi

Annotasiya: *Mazkur maqolada qadimgi davlatlarda musiqaning rivojlanishi yoritilgan.*

Аннотация: В данной статье освещается развитие музыки в древних государствах.

Abstract : *This article covers the development of music in the ancient states.*

Kalit so'zlar: Musiqo, ijod, kompozitor, cholg'u.

Ключевые слова: Музыка, творчество, композитор, инструмент.

Keywords: Music, creativity, composer, instrument.

Qadimgi Misr musiqa madaniyatining ildizlari miloddan burun 4-ming yilikni ohiri - 3 ming yilikni boshlariga borib taqaladi. Bizgacha yetib kelgan malumotlarning asosiy qismini material madaniyat yodgorliklari tashkil qiladi: cholg'u asboblar, ikonografik materiallar (barelyef va boshka tasvirlar), madhiyalar va qo'shiqlarning so'z matnlari, qadimgi Yunon va Rim olim - faylasuvlarining qo'l yozmalari.

Qadimgi Misr musiqasi saroy va xaram ibodatlarida yangragan edi. Shu bilan birga musiqa turli toifaga mansub insonlarning dam olish vositalaridan biriga ham aylandi. Shu bois Misrda musiqa "xi" ya'ni "orom olish" so'zi bilan nomlanishi tabiiydir. Jamoa siniflanishi davridan avval quyidagi asboblar mavjud edi: qo'ng'iroqchalar, sistr, kolotushka hamda aerofonlarni ilg shakkari-hushtak, fleyta. Ilk, Qadimiy va O'rta podsholik davrida (miloddan burun 3000-1700 asrlar) qamishdan yasalgan nay, uffata fleytalari, truba, arfa, turli hil barabanlar, shiqildoq asboblari amalda qo'llanilgan. Bu davrda piktografik notalashtirish va musiqani qoinot jismlari bilan bog'lash nazariyasining ilk namunalari paydo bo'ladi. Misr ibodatxonalarida o'tkazilgan marosimlarida musiqa namunalari bilan keng foydalanilgan. Bu borada xudolar - Osiris, Isida, Tot (ular musiqa san'atini yaratuvchilari deb hisoblanadi)ga bag'ishlab o'tkazilgan ibotatlar alohida qayd qilinadi.

Qadimgi Misr musika ladi (cholgu asboblar tuzilishining tahliliga ko'ra) pentatonikaga asoslangan. Shu bilan birga saroy musiqasi ham malum darajada o'ziga hos edi. Saroyda ijro etilgan musiqa (xor qushiqchiligi, ayollarning qushiq - yig'ilari va raqlari) yurush harakatlari va dramatik epizodlar bilan birikib kelgan. Miloddan burun 3 ming yillikda Misrda xeyronomiya rivoj topib (xeyronomiya tahminlarga ko'ra notalashtirish vazifasini ham bajargan) keng tarqaldi. Qadimgi podsholik davrida professional musiqachilar (ko'p hollarda saroy musiqachilari) ijtimoiy tabaqasi shakl topdi. Ular ichida Xemre, Xufu-Anx va boshqalar mashhurlikni qozongan.

Yangi podsholik davrida (miloddan burun 1580-1070 asrlar) Qadimgi Misr musiqasi Osiyo, xususan Siriya ta'siri ostida rivoj topdi. Musiqa cholgulari goboy, uchburchakli arfa, lira, lyutnya, kifara va boshqa asboblar bilan boy etildi. Ko'p cholg'ularni mukammal



tuzilishi tuliq xromatik tovushqatorni amalda qo'llash imkonini yaratib berdi. Yunon-rim ta'siri ostida esa Misrda (miloddan burun 332-395 asrlar) keng miqyosda avlos, ko'ndalang fleyta, buksina, turli hil lira, lab-garmonikasi, baraban va boshqa asboblaridan foydalanildi. Miloddan burun 3- asrda Aleksandriyada gidravlos cholgusi kashf qilindi.

Ikki daryo oralig'ida joylashgan qadimgi davlatlar (miloddan burun 3 ming yillik - 1 ming yillik) Shumer-Bobul va Assiriyaning musiqa madaniyati o'z navbatida qo'shni madaniyatlar (Osiyo, Afrika, Janubiy-Yevropa) rivojiga ham ta'sir qildilar. Shumer-Bobul va Assiriyada -bugri arfa, arfa shaklidagi lira, lyutnya, ko'ndalang fleyta, juftli goboy, baraban cholg'ularidan foydalanishgan. Musiqa bu davlatlarning saroy va diniy hayotida katta o'rinn egallagan. Musiqachi(erkak va ayol)lar ijtimoiy tabaqalanishda xudolar va podsholardan keyin turgan. Bu xalqlar musiqani sehirli kuchiga (Ishtar xudosi haqidagi mif) ishonganlar. Musiqiy -nazariy ilm astrologiya ta'siri ostida rivoj topdi. Besh va yetti raqamlariga alohida etibor berilgan: m-n 5 pog'onali angemiton va 7 pog'onali diatonik tovush qatorlar hamda 5 - 7 torli arfa mavjud edi.

Qadimgi Xitoy va Xindiston musiqa madaniyati. Ilk bor Xitoy musiqasi haqidagi ma'lumotlar (afsona va miflar) miloddan burun 4-3 ming yillikga, qadimgi marosim musiqasi haqidagi ma'lumotlar miloddan burun 16-11 asrlarga taaluqlidir. 11-8 asrlarda an'anaviy marosim orkestrlari tashkil kilinadi Orkestr tarkibiga: byansin litofonlari, byanchjun mis qo'ngiroqchalari, turli-hil qo'ngiroqlar(ular qatorida xunchjun, goudyao, yun, bo), gu barabanlari, syuan sapol nogorasi va boshka asboblar kirgan. Qushiqlar kitobi "Shitszin" (miloddan burun 11-6 asrlar) - Xitoyda ashulachilik ijod shakllari rivojining dalilidir. "Shitszin"da jovdu qo'shiqlar, oda(chjen-ya, syao-ya)lar va madxiya(sun)lar yig'ilgan. Chjou davrining kechki pallasida (miloddan 5-3 asrlar) konfusiy doktrinasining ta'siri ostida saroy marosimlar tizimi shakllanib bordi. Ushbu tizimda ashula va cholg'u namunalarining ketma-ketligi belgilandi. Saroyda musiqa va marosimlarni tashkil etuvchi "Dasiyue" jamoasi tuzildi. Xan davridan boshlab to Shimoliy va Janubiy podsholik (miloddan burun 206 asrdan - milodimizning 581 asri) davrigacha Xitoy musiqasi boy edi. Jumladan saroy musiqa san'atining asosiy turlari urnida konfusiy ibodat marosim musiqasi ya-yue va saroyda orom olish uchun mujallangan musiqa su-yue ("oddiiy xalq musiqasi" bir necha maxalliy turlarida namoish etilgan) rivoj etdi. Ko'p tarkibli (300-800 cholg'uchilardan iborat bo'lgan) an'anaviy orkestr shakl topdi. Orkestr tarkibiga kirgan cholgularning tayyorlangan ashyosiga qo'ra 8 guruxga ajratildi. Torli asboblarida (sin, pip) yakkasoz ijrochilik sanati ham rivoj etdi. Su Chjipo, Szi Li, LI Yannyan mashhur ijrochi va maktab asoschilari edi. Suy va Tan sulolasi hukmdorlik qilgan davrida (581-907) qadimgi Xitoy musiqa madaniyati yuksalish pallasiga o'tdi. San'atda bu davr - tan uslubi deb nom oldi. Saroy musiqasi ikkita asosiy janrlar li-puchi ("ochiq hovoda ijro etiladigan") va so-puchi ("xonaki ijro") turida rivoj topdi. Ular o'z ichiga ya-yue, su-yue, bayram-o'tirishlarida ijro etiladigan musiqa yan-yue, cholg'u musiqa xu-yue, xarbiy musiqa kuchuy, teatr musiqasi san-yue, sin uchun musiqa sin-yue. Yan-yue orkestrining cholg'ulari tarkibiga Xitoy asboblaridan tashqari Xindiston, Koreya, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa xalqlar musiqa asboblarini kiritgan holda musiqiy asarlarni ("Shipuchi" ya'ni "10 hil musiqa" deb nom olgan) ham ijro etilgan.



Xindiston musiqasi eng qadimiy va o‘ziga hos bo‘lib, uning ildizlari Xarappa va Moxendjo Daro sivilizatsiyasi(miloddan burun 3 ming yillik)ga borib taqaladi. Xind musiqasining asosiy rivojlov bosqichi qadimgi adabiyot yodgorligi -Veda(miloddan burun 2 ming yillikning ohiri – 1 ming yillikning birinchi yarmi), ilohiy matnlar rechitatsiyasi Rigveda(veda madxiyalari) va madxiyachilikning rivojlangan kuy namunalari Samaveda(veda kuylari) bilan bog‘liq buldi. Diniy-marosimning an'anaviy vedalari bilan bir qatorda xalq va saroy san‘atining rivojlangan shakllari mavjud edi. Xind folklorining serjiloligi(turlarida,lad-ritmik tizimida, janrlarida) eng avvalo Xindistoni polietnik va ko‘p tili davlat bo‘lganidadir. Janrlar ichida balladalar(ular ko‘pincha xalq tomoshalarida ijro etilib, epik va tarixiy syujetga asoslangan) - povada va lavani Maxarashtrada, pabudji Radjasxonda, burrakatxa Andxrada, pandavani Madxya-Pradeshda; qo‘sinq-raqs shakllari – garba Gudjaratda, sua Madxya-Pradeshda, kollatam Keralada, chakri Kashmirda; lirik qo‘sinqlar- bxatiali Bengalda, dxola Pendjabda, panixari Radjasxonda; ish jarayonida ijro etiladigan qo‘sinqlar - shari Bengalda, maxitya Pendjabda, kadjari Uttar –Pradesh xalqi ichida keng tarqaldi. Musiqiy cholg‘ular tarkibida: urma asboblar - dxol,dxolak ,damaru,udukkai, daf,tammatai , kandjira, gammati, nog‘ora; damli asboblar - kombu, singx, tiruchinnam, karna(karnay), bansuri, murali, algoza(fleyta), pungi, maxudi, gxonga, moxori, nagasar, surnay,naferi; torli-chertma asboblar – ektar, dotar(dutor), tuntune,djantar; torli-kamonli asboblar – kamaycha,banam,sarinda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Madrimov “Musiqa tarixi”
- 3.X.A.Trigulova“Xorijiy musiqa adabiyoti”
4. G.Tursunova “Jaxon musiqa tarixi”